
Diyorimizda muborak ramazon oyi davom etmoqda. Mehr-oqibat, saxovat, yaxshiliklar oyida qalblar nurga to'lmoqda

Davlatimiz rahbarining joriy yil 17 fevral kuni Buxoro viloyatiga tashrifi chog'ida ehtiyojmand, boquvchisini yo'qotgan, nogironligi bo'lgan shaxslarni davlat tomonidan Umra ziyoratiga jo'natish tashabbusi ilgari surildi. Qisqa fursatda anashu tashabbus amalga oshirildi. Va bir guruh vatandoshlarimiz Umra ziyoratiga yuborildi.

Respublikamiz bo'ylab minglab vatandoshlarimiz ichida 4 nafar rishtonlik xojilarimiz ham bor. Tumandoshlarimiz kuni kecha Umra ziyoratini o'tab qaytdilar. Bugun tuman hokimi tomonidan ziyoratchilar yo'qlandi.

2023-04-03 17:40:29